

## КО'PRIKLI KRAN BOSH BALKASINI TAYYORLASH TEXNALOGI JARAYONINI ISHLAB CHIQISH

Suvxonov Axmedjon Umidjon o'g'li

AndMI "TMJ" yo'nalish 2 – kurs

k-83-21 guruh talabasi

Isaboyev Toxirjon Mexmonovich

AndMI "TMJ" kafedrasi katta o'qituvchisi


**Annotatsiya:** Respublikamizda hozirgi kunda judayam ko'p joylarda ko'priki kranlar ishlatladi. Qurilma ko'plab qurilishlarda, ishlab chiqarish zavodlada juda og'ir jixozlarni stanok, dastgohlari kotarib joylashtirish ko'chirish uchun kerak boladi. ko'priki kran va ularning balkasini ishlab chiqish bilan tanishamiz.

**Kalit so'zlar:** aravacha, g'ildrak, balka, kran, tross.

**Kirish.** Hozirgi zamон саноат корхоналарни, qurilish inshootlarini yuk ko'tarish kranlari yoki moslamalarsiz tasavvur qilish qiyin. Korxonaning yuqori unum bilan ishlashida, shu korkonada qo'llanilayotgan yuk ko'tarish kranini yoki yuk tashish mashinalarining to'g'ri tanlanganligi katta ahamyatga ega. Hozirgi zamон yuk ko'tarish kranlari va yuk tashish mashinalari katta tezlikda ishlay oladi, yuk ko'tarish qobiliyati katta bo'lib bu uzoq muddatli rivojlanishning mahsulidir.


**Ko'priksimon kranlar.** Ko'priksimon kranlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Tayanch o'rnatilgan va osma kran balkalar.
2. Ko'priki kranlar.
3. Chorpovali kranlar.
4. kabelli kranlar.




**Tayanchga o'rnatilgan kran balkalar.** Tayanchga o'rnatilgan kran balkalarning yuk ko'taruvchanligi nisbatan kam bo'lib, tayanchlar orasidagi masofa L uncha katta bo'lmaydi. Kran aravachasi 2 bosh balka 1 bo'ylab harakatlanadi. Kran g'ildiraklari 3 tayanchlarga o'rnatilgan relslar bo'ylab harakatlanadi.(1-rasim)

**Osma kran balka.** Osma kran balka 1 osma tayanchlar 2da (tayanchlar qurilish konstruksiyasiga osib qo'yilgan) harakatlanadi. (2-rasim)




1-rasim. **Tayanchga o'rnatilgan kran balka:** 1- balka; 2-ko'tarish mexanizmi; 3- kran balka g'ildiraklari.




2-rasim. **Osma kran balka:** 1-balka; 2-tayanch.

**Ko'priki kran.** Ko'priki kranlarning asosiy balkalari 1 ko'priksimon konstruksiyani tashkil qiladi. Ko'prik ustida aravacha 2 harakatlanadi. Aravachaga yuk ko'tarish mexanizmi o'rnatiladi. Ko'prik ko'priksi siljitish mexanizmi yordamida harakatga keltiriladi. Ko'priksi siljitish mexanizmining g'ildiraklari sexlarning devorlariga o'rnatilgan relslar ustida harakatlanadi. (3-rasim)



3-rasim. Ko'prikli kran sxemasi: 1- asosiy balka ko'prik; 2 - aravacha.

**Chorpoyali kran (kozlovoy kran).** Chorpoyali kranlar katta- katta omborlarning ochiq maydonlarida, temiryo'l stansiya- larida vagonlarni yuklashda, vagonlardagi yukni tushirishda qo'llaniladi. Chorpoyali kranlar rels 3 ustida harakatlanadi. Kran metallkonstruksiyasi 1 bo'ylab, ko'tarish mexanizmi o'rnatilgan aravacha 2 harakatlanadi. (4-rasim).



4-rasim. Chorpoyali kran sxemasi: 1- kran metallkonstruksiyasi; 2- aravacha; 3-rels.

**Kabelli kran.** Bir-biridan biror masofa uzoqlikda joylashgan ikkita ustuncha 1 va tarang tortilgan arqonlar 2 dan iborat kran kabelli kran deyiladi. Bu kranlarda tarang tortilgan arqonlar ko'prik vazifasini o'taydi. Arqon-ko'prik ustiga aravacha o'rnatilgan bo'lib, yuk ko'tarish va yuk siljitishtish mexanizmi aravachaga o'rnatiladi.

### Xulosa

Ko'prikli kran - bu materiallarni ko'tarish uchun zavod, omborxonada gorizontal ravishda o'rnatiladigan ko'tarish uskunasi. Uning uchlari yuqori beton ustunlar yoki metall tayanchlarda bo'lganligi sababli, u ko'prikka o'xshaydi. Ko'prikli kranning ko'prikli ramkasi ikkala tomonning balandliklariga o'rnatiladigan yo'llar bo'ylab uzunlamasiga ishlaydi, bu esa yer usti uskunalari

tomonidan to'sqinlik qilmasdan materiallarni ko'tarish uchun ko'prik ramkasi ostidagi bo'shliqdan to'liq foydalanishga imkon beradi. Qurilma keng ishlatiladigan ko'chirish moslamasi.

Qurilmani yanada takomillashtirib osonroq qurish va ko'chirish uchun og'irligini kamadirish kerak ko'proq qulayroq bolishi uchun va uni elektr kabeli pultini soodaroq bulutusliy pultliy qilish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aleksandrov M.P. Yuk ko'tarish va tashish mashinalari M.. "Oliy mакtab", 1985, 519.
2. Bogorad A.A. Yuk ko'tarish va tashish vositalari. - M., Metallurgiya, 1989, b. 416
3. Davidboyev B.N. Ko'tarish- tashish mashinalari. T.: "O'qituvchi", -1989, 307- b.
3. Davidboyev B.N. Ko'tarish-tashish mashinalarini loyihalash. Т «O'zbekiston», 2001, 382-b.
4. Dodonov B.P., Lifanov V.A. Yuk ko'tarish va tashish moslamalari. M., <<Muhandislik>>, 1984, b. 135,
5. Kuzmin A.V., Maron F.L. Yuk ko'tarish va tashish mashinalarining mexanizmlarini hisoblash bo'yicha qo'llanma. - Minsk: "Oliy mакtab". 1983. c. 349.
6. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari Mirzayev A Sotvoldiyeva A
7. <http://kutubxonachi.u>
8. <https://lex.uz>.